

XORAZM VILOYATI TUMANLARI (HOZARASP, XONQA, BOG‘OT, URGANCH, XIVA) SHEVALARIDAGI FARQLAR**Muxlisa Amatova Azimboy qizi,***Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi***Ilmiy rahbar: Buranova Shoxista Menglibaevna,***Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti, O‘zbek tili kafedrası p.f.n dotsent,***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925580>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati tumanlarida qo‘llaniladigan shevalarning o‘zaro farqli jihatlari, ularning leksik, grammatik va fonetik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Jumladan, ayrim tumanlarda unli va undosh tovushlar talaffuzidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar, so‘z yasalishi va qo‘shimcha qo‘llashdagi farqlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada Xorazm shevalarining adabiy til bilan o‘zaro munosabati, ularning umumxalq tiliga ta’siri va bugungi kundagi saqlanish darajasi yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etiladi. Tadqiqot natijalari hududiy dialektlarni tizimli o‘rganish hamda ularning lingvistik ahamiyatini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sheva, lahja, dialekt, Xorazm, o‘g‘uz lahjasi, Xonqa, Urganch, Xiva, Bog‘ot, termin, singarmonizm, tovush.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются различия между диалектами, используемыми в районах Хорезмской области, их лексические, грамматические и фонетические особенности. В частности, проводится сравнительный анализ специфических изменений в произношении гласных и согласных звуков в некоторых районах, различий в словообразовании и употреблении аффиксов. Также в статье излагаются научные выводы о взаимосвязи хорезмских диалектов с литературным языком, их влиянии на общенародный язык и степени сохранности на сегодняшний день.

Ключевые слова: Шева, лахжа, диалект, Хорезм, огузский лахжа, Хонка, Ургенч, Хива, Богот, термин, сингармонизм, звук.

Annotation. This article analyzes the lexical, grammatical, and phonetic features of the dialects used in the districts of the Khorezm region on a scientific basis. In particular, a comparative analysis of the specific changes in the pronunciation of vowel and consonant sounds in some regions, the differences in word formation, and the use of suffixes, is carried out. Also, the article presents scientific conclusions about the relationship between Khorezm dialects and literary language, their influence on the common language, and their degree of preservation to date. The research results serve as an important source for a systematic study of regional dialects and for determining their linguistic significance.

Keywords: Dialect, regional dialect, Khorezm, Oghuz dialect, Khonqa, Urgench, Khiva, Bogot, term, vowel harmony, sound.

Kirish. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining boy va turli xil shevalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, hududiy dialektlarning xilma-xilligi, tilimizning tarixiy taraqqiyoti, etnik shakllanish jarayoni va turli xil qatlamlari haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Hozirgi rivojlangan zamonda adabiy tilning mavqei ortib borayotgan bir paytda, mahalliy shevalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xorazm viloyati shevalari o‘zbek

tilining o'g'uz lahjasi tarkibiga kirib, fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq viloyat tarkibidagi tumanlar – Hozarasp, Xonqa, Bog'ot, Urganch va Xiva shevalari o'rtasida ham ma'lum farqlar mavjud. Ushbu farqlar tovush o'zgarishlari, qo'shimchalar qo'llanilishi, so'z yasalishi hamda ayrim leksik birliklarda deb yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek dialektologiyasi masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, S. Ashirboyevning "O'zbek dialektologiyasi" (2013) va A. Yoqubovlarning "O'zbek dialektologiyasi" (2021) kitoblarida o'zbek shevalarining tasnifi, fonetik va grammatik xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Mazkur ishlarda o'zbek shevalarining hududiy guruhlari hamda ularning adabiy til bilan munosabati keng tahlil qilingan. Xorazm shevalari masalasi esa F. Abdullayev hamda boshqa dialektolog olimlar tomonidan alohida o'rganilgan bo'lib, unda mazkur hudud shevalarining o'g'uz lahjasiga mansubligi, fonetik o'ziga xosliklari va leksik qatlamlari haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan. Shunga qaramay, Xorazm viloyati tumanlari kesimida shevalarning qiyosiy tahliliga doir tadqiqotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur maqolada aynan Hozarasp, Xonqa, Bog'ot, Urganch va Xiva tumanlari shevalari o'zaro taqqoslanib, ularning farqli va o'xshash jihatlari aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda Hozarasp, Xonqa, Bog'ot, Urganch va Xiva tumanlarida qo'llaniladigan shevalar asosiy material sifatida olindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Shevalardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar adabiy til bilan taqqoslanib o'rganildi. Tumanlararo farqlar misollar asosida aniqlanib, jadval shaklida tizimlashtirildi. Shuningdek, mavzuga doir ilmiy manbalar o'rganilib, nazariy qarashlar amaliy materiallar bilan bog'landi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. Bugungi kungacha o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etmoqda. Shuningdek, o'zbek dialektologiyasining tarixiy taraqqiyoti va hozirgi davrini tushunish hamda izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qo'llanadiki, ularning lug'aviy va terminologik ma'nolarini bilish, albatta, zarurdir. "Sheva forscha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi". "Dialekt so'zi grekcha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi". "Lahja arabcha so'z bo'lib, u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'dasini anglatadi" [1]. Albatta, har bir hududning o'ziga xos shevalari bo'lganidek, Xorazm viloyatining ham barcha tumanlari o'z shevasiga ega. Asosan, Xorazm viloyati o'g'uz lahjasi tarkibiga kiradi. Xorazm viloyati o'g'uz lahjasi tarkibiga kirsada, tumanlararo shevalari farq qiladi. Bunga misol tarzda Bog'ot, Hozarasp, Xonqa, Urganch

va Xiva tumanlarini keltirishimiz mumkin. Bu tumanlar Xorazm hududida bir-biriga masofa jihatdan ham, nutqida sheva qo'llash, ya'ni shevalari bir-biriga yaqin tumanlar hisoblanadi. Xorazm viloyatining lahjasi ham O'zbekiston hududidagi eng qiziqarli va boy shevalardan biridir. Xorazm shevasiga yaqin sheva O'zbekistonning Xorazm viloyati, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Turkmanistonning ba'zi hududlarida ham uchraydi. Bu sheva o'zining qadimiyligi, fonetik va leksik-grammatik jihatidan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Shevalarni guruhlariga ajratishda ko'plab olimlar o'z hissasini qo'shishgan. Misol uchun, G'ozim Olim Yunusov o'zbek shevalarini uchta katta guruhga ajratadi: 1) o'zbek-qipchoq shevalari; 2) turk-barlos shevalari yoki "chig'atoy" shevalari; 3) Xiva-Urganch shevalari. Olim Xiva-Urganch shevalarining fonetik xususiyatlari bo'yicha quyidagilarni yozadi: "Xiva shevasi ... o'zining tovush uyg'unligining saqlanganligi va uzun uniligi bilan ajraladi. Xiva shevasida til o'rta k, g tovushlarining bo'livi va "k" o'rnida "g" ishlatilivi diqqat etadigan fonetik xususiyatlardandir" [2]. Olimning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, o'zbek shevalari ichida Xiva-Urganch hududida shakllangan lahjalar o'ziga xos fonetik belgilar bilan ajralib turadi. Bu shevalarda tovushlar tizimidagi ayrim xususiyatlar diqqatga sazovordir. Masalan, ba'zi undoshlar (xususan, orqa til undoshlari) bilan bog'liq o'zgarishlar kuzatiladi. Ayrim hollarda "k" tovushi o'rnida yumshoqroq talaffuzga ega "g" tovushining qo'llanishi kuzatiladi. Bu hodisa tilning tabiiy fonetik jarayonlari, tovushlarning bir-biriga moslashuvi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, ushbu shevalarda tovush uyg'unligining nisbatan yaxshiroq saqlangani va ayrim so'zlarda cho'ziq unli tovushlarning qo'llanilishi ham kuzatiladi. Bunday fonetik belgilar shevaning qadimiy qatlamlarini saqlab qolganligidan dalolat berishi mumkin. Sheva materiali asosida shuni aytish mumkinki, bu hudud lahjalari zamonaviy adabiy til bilan bir qator farqlarga ega bo'lsa-da, o'z ichki tizimi jihatidan mustahkam va muvozanatli ko'rinishga ega. Bu esa ularni alohida guruh sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bunga misol tarzda Xorazm tumanlaridagi shevalarning farqli va o'xshash jihatlarini tahlil asosida keltirishimiz mumkin. Masalan, Xonqa tumanida "keldi" so'zi o'rniga "galdi"; Bog'ot tumanida esa "kaldi", Xiva va Hozarasp tumanlarida ohang va urg'u boshqacha eshitiladi. Adabiy tildagi "tashqarida" so'zi ham Xiva va Urganch tumanlarida "disharida"; Hozarasp tumanida "deshyonda", ba'zi hollarda "y" undosh tovushi tushib qoladi va "deshonda" tarzida talaffuz qilinadi. Tumanlararo shevalar farqlansa ham, ammo barchasi o'g'uz lahjasi doirasida qoladi.

"I.A.Bogoroditskiyning fikriga ko'ra, singarmonizm unlilar uyg'unligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko'rinishiga ega:

1. Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizmi. Bu qonuniyatga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator unlilar qatnashgan bo'lsa, keyingi bo'g'inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi, so'zning dastlabki bo'g'inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham orqa qator unlilar qatnashadi.

2. Labial singarmonizm. Bu qonuniyat aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining "temir qonuni" hisoblanadi. U o'zbek tili va uning shevalarida qisman amal qiladi. Bu qonuniyatga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi". Tilimizdagi fonetik hodisalardan biri bo'lgan singarmonizm – bu nafaqat tovushlarning uyg'unligi, balki til taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan hodisa sifatida e'tiborga molikdir. Singarmonizm asosan unlilar uyg'unligi sifatida tushunilsa-da, ayrim hollarda undosh tovushlarga ham ta'siri seziladi. Mening fikrimcha, singarmonizm qonuniyatlarini ikkiga ajratish – ya'ni lingval (palatal) va labial singarmonizm sifatida ko'rib chiqish – bu hodisaning mohiyatini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so'z bo'g'inlarida unli tovushlarning ketma-ketligi va ularning tovush xususiyatlariga muvofiq tarzda kelishi fonetik tizimdagi uyg'unlikni ifodalaydi. Masalan, Hozarasp, Xonqa va Urganch tumanlarida adabiy tildagi "oldida" so'zini "aldinda" tarzida, ya'ni bu so'zdagi birinchi bo'g'inda qatnashgan "a", ikkinchi bo'g'indagi "i" tovushi bilinar-bilinmas old qator va uchinchi bo'g'indagi "a" tovushlari old qator unli tarzida talaffuz etiladi. Bu so'z lingval yoki palatal singarmonizmga misol bo'la oladi. Bog'ot va Xiva tumanlarida esa "oldindo" tarzida talaffuz etiladi. Bu so'zning birinchi bo'g'ini orqa qator lablangan unli bo'lganligi sababli qolgan bo'g'inlarda ham orqa qator lablangan unli ishtirok etadi. Bu so'zni biz labial singarmonizmga misol tarzda keltirishimiz mumkin.

Xorazm viloyatining har bir tumanidagi shevalarning o'zaro farqli va o'xshash jihatlari quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

T/r	Adabiy til	Hozarasp tumani	Bog'ot tumani	Xonqa tumani	Urganch tumani	Xiva tumani
1	Ketadigan	Gitaduvon	Ketatig'an	Getado'n	Getadon	Gitado'n
2	Kelyapman	Gayatirman	Keyatirman	Geyatirman	Gayatirman	Galyatirman
3	Qanqaymoq	Qo'qqi, qo'nqi, qo'ngqaymaq	qangqaymaq	qangqaymoq	Qo'ngqaymaq	Qo'ngqi, qo'ngqaymaq
4	Urishqoq, erka va sho'x	Jalatay	Jolotoy	Jalatay	Jalatay	Jalatay
5	Gapir	Gapla	Gapla	Gapla	So'lla	So'lla
6	Anqov	Angatov	Ongotov	Ongqo'v	Angqo'v	Angqo'v
7	Tiniq	Diniq	Tiniq	Tiniq	Diniq	Tiniq
8	Shovqin	Vog'irdi	Vog'irdi	Vog'irdi	Vag'irdi	Vag'irdi
9	Ip	Nax	Sovox	Sovox	Nox	Nox
10	Qiyiqcha	Chilap	Qiyiq	Qiyiq	Qiyiq	Qiyiq
11	Boryapman	Boryatirman	Baryatirman	Baryatirman	Baryatirman	Baryatirman
12	Bormoqchiman	Borjoqmon	Borjoqmon	Borjakman	Borojoqmon	Borjakman
13	Arg'imchoq	Sanjaq	Harkinchak	Sorinjoq	Sarinjak	Sorinjoq
14	Suvarak(hasha rot)	No'xarak	Taraqan	Taraqan	Taraqan	Taraqan
15	Chumoli	Qarinja	Qimirsqa	Qumirsqa	Qarinja	Qorinja

		(qarchiqqa)				
16	G'isht	Karpich	Karbich	Karbich	Karvuch	Karvich
17	Hamak (pishmagan qovun)	Do'lak	Xom	Xom	Xom	Xom
18	Gugurt	Kurgut	Kugurt	Kugurt	Kuyurt	Kuyurt
19	Mushuk	Pishik	Pishiq	Pishiq	Pishik	Pishak
20	Zardoba	Dovcha	Davcha	Davcha	Do'cha	Do'cha

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyati tumanlaridagi shevalar nafaqat tilshunoslik uchun, balki xalqning ma'naviy merosini saqlash va o'zligini anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Har bir tuman shevasi xalqimizning boy madaniy merosining bir bo'lagi hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiya va ommaviy axborot vositalari ta'sirida mahalliy shevalarning ba'zi unsurlari unutilib bormoqda. Shu sababli Xorazm viloyati shevalarini o'rganish, yozib olish va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifadir. Shevalarni o'rganish orqali nafaqat tildagi farqlarni, balki xalqning o'ziga xos fikrlash tarzini ham bilish mumkin. Har bir shevada o'sha hududda yashovchi insonlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini, hatto dunyoqarashi aks etadi. Shu bois Xorazm shevalari o'zbek tilining ajralmas qismi bo'lib, ularning saqlanib qolishi tilimiz boyligini asrab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. 4-5-b.
2. Yoqubov A. O'zbek dialektologiyasi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021. 9-10-b.
3. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. Т.,1960
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jizzax_davlat_pedagogika_universiteti.